

**TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIKA FANI O'QITILISHINING
MUHIMLILIK DARAJASI****Ismatova Munavvar Yunosovna***Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 2-son kasb hunar maktabi o'qituvchisi.***Qahharov.Sh***Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi*

Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy - ma'naviy salohiyat - ma'rifatli insonning ikki qanotidir».

I. A. Karimov

Hozirgi zamon fanida, ijtimoiy hayot sohalarida ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar yuz bermoqda. "O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalami amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu — mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"²⁵, - deb ta'kidlaydi birinchi Prezidentimiz I .A. Karimov.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga ega. Pedagogika ham boshqa fanlar kabi avvalo, jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim, chunki ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Hozirgi kunda Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim davlat standartlariga asoslangan o'quv rejasiga ko'ra pedagogika oliygohlarida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanini o'qitishga 152 soat ajratilgan bo'lib, shulardan 72 soati ma'ruzalarni tashkil qiladi. Ushbu darslik yangi andoza talablari bo'yicha tuzildi. Unda dasturdagi pedagogika nazariyasiga oid mavzular qamrab olingan. Har bir mavzudan keyin takrorlash va munozara uchun savollar berildi, oxirida asosiy adabiyotlar ro'yxati, mavzuga oid muammoli vaziyatlar, ulaming echimlari, mustaqil ishlash uchun

²⁵ I.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — T. «Sharq», 199867-bet

topshiriqlar, tavsiyalar keltirilgan. Pedagogik vaziyatli masalalar talabalarning ma'ruzalarda egallagan nazariy bilimlarini to'la-to'kis idrok qilishi, jamlangan rinalar va ko'nikmalarni hayotda qo'lay olish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan.²⁶

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi degan fikri ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirish uchun Respublika Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi IX sessiyasida, qonuniy zamin bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning qabul qilinishiga bir qator omillar sabab boldi: birinchidan, biz yashayotgan muhitda ijtimoiy tuzum o'zgarishi bo'lsa, ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish va mulkka boigan munosabat o'zgardi, uchinchidan, eski mafkuraviy qarashlar yangi sharoitga javob bermay qo'ydi, to'rtinchidan, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tadbirlar jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilinishni, talabalariga milliy va umuminsoniy qadriyatlar his-tuyg'ularini singdirib, ularni har tomonlama barkamol, chuqur bilimga ega mutaxassis etib tayyorlashni taqozo etdi.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 5 ta bo'lim, 34 moddadan iborat. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarida: ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi, demak, ta'lim-tarbiya ishlari davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biridir. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari: ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiylik; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini tanlashning ixtiyoriyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuvi; bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish. Ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.²⁷

Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni, DTSni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.²⁸

²⁶ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim davlat standartlari (T., 2004y.)

²⁷ I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jumali, 1998, 2-son.

²⁸ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod—O'zbekistontaraqqiyotining poydevori. - T., "Sharq", 1998 y, 42-bet.

Xulosa qilib aytganda hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglardan har tamonlama yetuk va yuqori darajadagi bilm, ko'nikma, professional malaka talab etiladi. Jadallashib borayotgan zamonga mos javob qaytarish uchun ham kelajak avlodni maktab dargohidanoq puxta tayyorlash dolzarb muommoga aylanmoqda. Shu sababli pedagoglar malakalarini yanada oshirish bo'yicha uzluksiz ta'limiy jarayonlar tashkil qilinayapti.